

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FINLANDIYA TA'LIM TIZIMINING
IMKONIYATLARI****Nabiyeva Gavhar Kamol qizi**

Qarshi Xalqaro Universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim sohasida mavjud bo'lgan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etishda chet el tajribasidan foydalanish zarur. Chet el o'rganish shuni ko'rsatdiki, Finlandiya ta'lim tizimi ayniqsa boshlang'ich ta'lim sohasidagi tajribasi nihoyatda beqiyos. Dunyoning bir qator davlatlari ta'lim tizimini isloh qilishda Finlandiya tajribasidan foydalanib kelmaoqda. O'zbekistondagi boshlang'ich ta'lim tizimini Finlandiya tajribasidan foydalanib bu isloh qilish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim sohasidagi ayrim muammolar, islohatlar, boshlang'ich ta'lim, chet el tajribasi, bilimlarni baholash dasturi, Xalqaro tadqiqot dasturi, Finlandiya ta'lim tizimi, professional o'qituvchi.

Аннотация: Сегодня нам необходимо использовать зарубежный опыт для устранения некоторых недостатков в сфере образования. Изучение зарубежного опыта пока-начального, не имеет себе равных. Ряд ведущих стран мира используют опыт Финляндии в реформировании системы образования в Узбекистане с использованием опыта Финляндии поможет повысить эффективность системы образования.

Ключевые слова: Некоторые проблемы в сфере образования, реформы в сфере образования, начальное образование, зарубежный опыт. Программа международной оценки знаний (PISA), финская система образования, профессиональный педагог.

Annotation: Today we need to use foreign experience to eliminate some of the shortcomings in the field of education. A study of Foreign experience has shown that Finland's experience in the field of education, especially primary education, is unparalleled. A number of leading countries of the world use the experience of Finland in reforming the education system. Reforming the primary education system in Uzbekistan using the experience of Finland will help improve the efficiency of the education system.

Keywords: Some problems in the field of education, reforms in the field of education primary education, foreign experience. Program for International Knowledge Assessment. Finnish education system, professional teacher.

Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, har bir rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'limda alohida ustivorlikka ega jihatlari mavjud. Jumladan Xitoyda 6yoshga to'lgan bolalar bosh maktab yoki o'rta maktabga kiradilar va u yerda 6yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabda bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'ribor beradi. Bolalar jismoniy tarbiya ko'p vaqt ajratadilar, cholg'u asboblarini chalishni o'rganadilar, ingliz va rus tillaridagi bilimlarini oshiradilar. Darslar 7:00da boshlanadi. Har kuni ertalab barcha o'quvchilar o'qituvchilar bilan birgalikda jismoniy mashq qiladilar. Keyin soat 8:00dan 12.00gacha tushlik tanaffusi mavjud bo'lib, umda bolalar maktabda uxlashi mumkin, tushdan keyin esa gumanitar fanlar bo'yicha yana 3ta dars o'tkaziladi. Keyin bolalar uy vazifalarini bajaradilar va faqat soat 16.00da uyga qaytishlari mumkin.

Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimida ekalogiyaga alohida e'tibor qaratilgan .Jumladan ,2005 yilda joriy qilina boshlagan bosh maktab o'quv dasturida u yoki bu tarzda ekalogik muammolarga ta'sur etuvchi mavzular"Hayot xavfsizligi(atorf-muhit)."Tabiiy fanlar va texnologiya"fanlari materialariga kiritilgan.Ta'lim muassasasi qoidalariga kora ,ushbu fanlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:oz-ozini bilish,tabiat va unda sodir bolayotgan jarayonlarini tushuntirish qobiliyati,hayot sifatini yaxshilash,yollarni topish ,tabiat resurslaridan to'gri foydalanishni organish.

Finlandiya 2014 -yilda asosiy ta'lim boyicha yangi milliy tayanch o'quv dasturini ishlab chiqdi va u 2016 yil avgust oyidan boshlan Finlandiya maktablarida amaliyotga joriy qilina boshlandi.O'quv dasturini isloh qilishdan maqsad o'qituvchilar va pedagoglarga bolalar va yoshlarning hayotida zarur bolgan narsalarni organishda yordam berishdir.Finlandiya Ta'limi -oliy maqsadi farzandlarimizni hayotida yirdam beradigan bilim ,konikma ,munosabatlar va qadriyatlarini organishlarini xoxlaymiz.Shuning uchun biz tez o'zgaruvchan dunyoda ularga qanday muhim kompetensiyalar kersk bolishi haqida oylashimiz kerek.

Ta'lim sohasi haqida soz yuritar ekanmiz,shuninshuni alohida ta'kidlab otish joizki,bugungi kunda mazkur sohada olib borilayotgan islohatlar ozining ijobiy natijalarini bermoqda.Ammo bu muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda,ta'lim tizimida ,ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida oz yechimini kutayotgan quyidagi muammolar mavjud.

—umumta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy -joyiga qoyish masalalarini hal etish,idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta'limi boshqaruv organlari rolining yetarli darajada muammolar mavjud.

—Umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bolmagan vazifalar yuklanishi,muassasa direktori va uning orinbosarlari ortasida,vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi,ular faoliyati samaradirligini bajolashning aniq mezoniva parametrlari mavjud emasligi.

—umumiy orta ta'limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotiga tatbiq etish boyicha chuqur ilmiy tadqiqiyotlarning mavjud emasligi,o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida xalq ta'limi bolimlari va umumta'lim muassasalari ortasida ozaro hamkorlik darajasining pastligi.

—rahbarlar,o'qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligini ,nazarot qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarini tekshirish haddan ziyod kopayib ketganligi.

—ta'lim sifatini ta'minlash,o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, O'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi,

—xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy -texnik ta'minlash mehanizmining mukammal emasligi,ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy yechimlari,innovatsion ishlanmalarni va axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi.

Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish,darajasining pastligi kòlamda ilmiy tadqiqot ishlariini olib borish va amaliyotga tadbiq qilishni,talab etadi.Chet el tajribasi ,xususan boshlang'ich ta'lim tizimi sohasidagi tajribasi haqida alohida tòxtalib òtishi lozim.

Finlandiya òqituvchilar har bir òquvchining òzlashtirishiga qarab òquv dastur va darsliklarni òzgartirishlari ham mumkin,Òquvchilarning har biriga individual e'tibor qaratilishi natijasida ,darsga qiziqish va yaxshi òzlashtirishga erishiladi.Maktab òquvchilari uchun darslik,yozuv daftarlari,òquv qurollari,har yili bepul taqdim etiladi.Asosiy ta'limni fin òquvchilar 9 yil davomida olishadi va ularning 60nfoizi òqishini oliy ta'lim muassasalarid davom ettiradi.Òzbekiston bilan taqqoslaydigan bòlsak,hozirgi kunda maktab bitiruvchilarining 33 foizigina òqishi oliy ta'lim muassasalarida davom ettirmoqda.

Bunday kòrsatkichlarni sababini òrganish uchun Òzbekiston va Finlandiyaning boshlang'ich ta'lim tizimining òziga xos jihatlarni tahlil qilish va òzaro taqqoslab kòrish mumkin.Asosiy faqrlar ikkinchi jadvalga aks etgan.

ÓZBEKISTON

FINLANDIYA

- | | |
|---|--|
| 1.Maktab formasi majburiy. | 1.Maktab formasi majburiy emas. |
| 2.Baholash 5 ballik tizimda. | 2.Boshlang'ich sinflarda baholash tizimi mavjud emas. |
| 3.Òquv dasturi va darsliklar davlat tomonidan belgilanadi. | 3.Òquv dasturi va darsliklar òqitish tomonidan belgi. |
| 4.Uyga vazifa mavjud. | 4.Uyga vazifa mavjud emas ,chunki òqish joyi faqat maktab deb hisoblanadi. |
| 5.Barcha òqituvchilar kamida "Bakalavr"darajasiga ega. bòlishi shart | 5.Barcha òqituvchilar kamida "magistr" darajasiga ega bòlishi shart ,hamda 3 bosqichli tanlovdan òtishi lozim. |
| 6.Maktab tozaligi maxsus ishchilar tomonidan nazorat qilinadi ya'ni. farroshlar mavjud. | 6.Maktab tozaligi òquvchilar tomonida nazorat qilinadilar.Fin maktablarida farroshlar yòq ,barcha tozalik ishlari òquvchilar tomonidan navbatma-navbat bajariladi. |
| 7.Dars vaqti 5-6soatlar(xususiy. maktablarda esa 7-8 soat). | 7.Dars vaqti 4 soat. |
| 8 Maktab òqituvchilari malakasi har 3yilda oshiriladi. | 8.Maktab òqituvchilari malakasini oshirish har hafta 2 soatini tashkil qiladi. |

9.Maktab oshxonasida achchiq ,shirin, 9.Maktab oshxonasida mahsulotlar shòr ,non mahsulotlari sotiladi. bepul bòlib,suv,sut,meva va savzavotlardan boshqa mahsulotlar yòq.

10."Raqobat" tushunchasi mavjud. 10."Raqobat"tushuncha mavjud emas.
Finlandiya madaniyatida biri boshqasidan ustun degan tushuncha qadrlanmaydi.

11.Tashqi nazorat va bosim. 11.Tashqi nazorat va bosim mavjud emas.
mavjudligi

Yuqoridagi tahlilda kòrinib turibdiki, Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi bolalarni erkin fikrlash, stress holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish ,òquvchilarga individual yondashish, ma'suliyatlik hissini singdirib borish, bolalar uchunqulay bòlgan fizialogik sharotilarni va psixalogik muhitni yaratish, òqituvchilarning yuqoridagi professional kompetensiyasini ta'minlashga qaratilgan. Shubxasiz, bular ta'lim samaradorligini oshrishga ijobiy ta'sir kòrsatad va òquvchilarni òqishga bòlgan intilishlarini kuchaytiradi, hamda maskur ta'lim tizimining yuqori samaradorligini kòrsatadi.

Shuni alohida ta'kidlab òtish kerakki, boshlang'ich sinflarda puxta olingan ta'lim òrta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta'limi muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini òtaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bòlgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bòlib, yetishida ta'lim muhim òrin egallaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi nihoyatdakat ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta'lim tizimini keyingi bosqichlarining natijasi va samaradorligini boshlang'ich ta'lim jarayonida olingan bilim va shakllangan kònikmalarga bog'liq bòladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimi bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish inovatsion gòyalarini va ilgòr chet el tajribasini tadbiq etish ishlarini olib borish, inovatsion gòyalarini va ilgòr chet el tajribasini tadbiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz, bu sa'y -harakatlar yaqin kelajakda òz natijasini beradi. va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÒYXATI.

1. Òzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Ta'lim tògrisidagi qonun .23.09.2020yildagi.
3. Grigoriy Petrov. "Oq nilufarlar yurtida".
4. Timati Voker "Finlandiya ta'lim mòjizasi". "Global books".